



**“SOG’LIQNI SAQLASH TIZIMIDA TEZ TIBBIY YORDAM XIZMATI
FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI”**

Sharapova M.

TMI, “Moliya” kafedrası dotsenti,

Isaxonova Ruxshona

TMI, 1-kurs talabasi,

(97)-495-27-03

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7726849>

Sog’liqni saqlash aholi sog’lig’ini muhofaza qilishga yo’naltirilgan ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy tadbirlar tizimi bo’lib, kasalliklarning oldini olish va davolash, sog’lom turmush va mehnat sharoitini yaratish, yuqori mehnat qobiliyatini va uzoq umr ko’rishni ta’minlashga qaratilgan umumiy tadbirlarni ko’zda tutadi. Uning asosiy vazifasi bemorlarga zamonaviy, ixtisoslashgan hamda mos tarzda yordam ko’rsatishdan iborat. Sog’liq inson uchun eng kerakli ehtiyojlardan biridir. Oxirgi yillarda mamlakatimizda olib borilgan islohotlar samaradorligini oshirish maqsadida qabul qilingan “2017-2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishlari bo’yicha Harakatlar strategiyasi”ning to’rtinchi ustuvor yo’nalishida, ya’ni “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” bo’limida ham aynan aholi sog’lig’iga e’tibor qaratish va shu sohani yanada isloh qilish kabi masalalar ham ilgari surilgan. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2017-yil 16-martdagi PF-4985-son farmoniga muvofiq fuqarolarning malakali tibbiy xizmatdan foydalanishini ta’minlashga yo’naltirilgan normativ-huquqiy bazani rivojlantirish, tez tibbiy yordamning sifatini oshirish uchun tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar yaratish kabi vazifalar amalga oshirildi. Shunga qaramay, bugungi kunda tez tibbiy yordam bilan bog’liq muammolar yuzaga kelmoqda.

Birinchiidan, hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalarning hududlarga kirib kelishi, ya’ni eng oxirgi rusumdagi uskuna va avtomobillarning amaliyotga tadbiq etilishi kuzatilmoqda. Ammo bu zamonaviy texnologiyalardan foydalana oladigan mutaxassislarning yetishmasligi yaqqol ko’rinib turibdi. Va shu sababli bemorlarga tez tibbiy yordam vaqtida ko’rsatilmagani tufayli vafot etishi ya’ni o’lim holatlari ro’y bermoqda.

Ikkinchiidan, feldsherlarda yetarli dori-darmon mavjud emasligi yoki tirbandliklar va yoqilg’i muammolari tufayli kechikib kelishi yuzaga kelmoqda.





Bundan tashqari, yetarli malakaga ega bo'lmagan ishchilarning soni ortib borishi aholi noroziligiga sabab bo'lmoqda va ularni qoniqtirmayapti.

Yuqorida berilgan muammolardan kelib chiqqan holda, aholiga tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishni yanada yaxshilash va yaqinlashtirish, shuningdek, 2022-yil 18-mart kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sog'liqni saqlash sohasi vakillari bilan "Tibbiyotdagi islohotlar — inson qadri uchun" mavzusidagi ochiq muloqoti doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida vazifalar belgilab qo'yildi.[1]

Birinchi navbatda, respublika tez tibbiy yordam markazi va uning 14 ta hududiy filiali tez tibbiy yordam xizmati hamda tibbiy avtoxo'jaliklar negizida tashkil qilish, tez tibbiy yordamning yagona vertikal boshqaruv tizimi yo'lga qo'yish va bir qator vazifalar belgilandi:



1-

rasm. Tez va shoshilinch tibbiy yordam xizmati faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari¹

Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimiz taraqqiyotini yuksaltirish va Yangi O'zbekistonni barpo etish maqsadida qabul qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" ning bir nechta

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 16.06.22 yildagi PQ-283-soni asosida muallif tomonidan tayyorlandi.





ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

maqsadlarida tibbiy xizmatlarni takomillashtirish bo'yicha masalalar keltirib o'tilgan. Jumladan, 55-maqсад ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish haqida, 56-maqсад esa aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, budjet mablag'laridan samara berishini ko'zlagan holda foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug'urtalash amaliyotni joriy qilish kabilarni nazarda tutadi. Bundan tashqari 58-maqsadda turli xil dori-darmonlar va tibbiy buyumlar muomalasini tartibga solish hamda aholiga arzon hamda sifatli mahsulotlar yetkazib berish tizimini rivojlantirish, ya'ni elektron retsept tizimini keng joriy qilish va narxlarga rioya etilishini masofaviy kuzatishning axborot tizimini yaratish haqida so'z boradi. Hamda farmasevtika mahsulotlarini markirovkalash tizimini joriy qilish masalalari ko'zda tutilgan. 64-maqсад esa hududlarda birlmachi tibbiy xizmatini "bir qadam" tamoyilli asosida tashkil etish vazifasidan iborat. Hududlardagi mavjud ehtiyoj, aholinig takliflarini inobatga olgan holda 2022-2023-yillarda 61 ta oilaviy poliklinikalar, 215 ta oilaviy shifokor punktlarini tashkil etilishi belgilandi. [2]

Bundan tashqari, Oliy Majlis senatida tez tibbiy va shoshilinch yordam xizmati faoliyatini takomillashtirish masalalari yuzasidan bir qator dasturlarni qabul qilish va amalga oshirishda senatorlar tomonidan ko'rsatiladigan amaliy yordam jihatlariga bag'ishlangan seminarda ham mavjud muammolar ko'rib chiqildi. Unda joylardagi tez tibbiy yordam xizmati faoliyatini chuqur o'rganish, muammolarni bartaraf etish maqsadida dasturlar ishlab chiqish vazifasi yuklatilganligi ta'kidlandi. Va shu maqsadda senatorlar va deputatlarning tez tibbiy va shoshilinch yordam xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan hududiy dasturni ishlab chiqish jarayonida ishtirok etish hamda uning ijrosini parlament o'z nazoratiga olish bo'yicha tavsiyalar berib o'tildi. Ishchi guruhlar tomonidan har bir tez tibbiy va shoshilinch yordam bo'limi faoliyati tanqidiy o'rganilishi, aniqlangan kamchilik hamda muammolar bartaraf etilishi va sifatini yaxshilash bo'yicha vazifalar berildi. Bunda poliklinikalarda 24 soatlik navbatchilikni tashkil etish, zarur shart-sharoitlar yaratish, har bir poliklinikani tibbiy yordam avtomashinasi bilan ta'minlash, hududdagi mavjud ko'chalarni nomlash va uylarni raqamlash kabi masalalarga alohida e'tibor berish lozimligi ta'kidlandi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar hech qaysi mamlakatda osonlikcha amalga oshirilgan emas. Biroq, bugungi kunda, zamonaviy texnologiyalar bilan birgalikda ish olib borgan holda muammolarga





yechim topish biz yoshlarning qo'lida va shunday tadqiqot va islohotlarni amalga oshirish va izchil davom ettirish zarur deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 16.06.22 yildagi PQ-283-son
2. <https://president.uz> (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti)

